

BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA KOMMUNIKATIV YONDASHUVNING NAZARIY ASOSLARI

Komilova Dilnozaxon Abdulxayevna

*Andijon davlat pedagogika instituti
boshlang'ich ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi*

Rustamova Gulira'no Farruxbek qizi

*Andijon davlat pedagogika instituti
boshlang'ich ta'lim kafedrası magistranti*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida kommunikativ yondashuvni qo'llashning nazariy-pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim talablariga ko'ra, o'quvchilarda til bilimlarini faqat nazariy emas, balki real muloqot jarayonida qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Kommunikativ yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlariga mos bo'lib, ularning nutqiy faolligini oshirish, grammatik ko'nikmalarni ong'li ravishda o'zlashtirish hamda mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tezisdan kommunikativ yondashuvning mazmuni, uning lingvistik va pedagogik asoslari, shuningdek, boshlang'ich ta'lim jarayonidagi o'rni ilmiy jihatdan yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *kommunikativ yondashuv, boshlang'ich ta'lim, ona tili darslari, nutqiy kompetensiya, grammatik ko'nikmalar, til o'rgatish texnologiyasi, lug'at boyligi, interaktiv metodlar, pedagogik texnologiyalar, didaktik yondashuv, ta'lim samaradorligi, nutq madaniyati, metodika, baholash mezonlari.*

Аннотация. *This article analyzes the theoretical and pedagogical foundations of applying a communicative approach in mother tongue lessons in primary school. According to the requirements of modern education, it is important to form students' ability not only to acquire language knowledge theoretically, but also to use it in real communication situations. The communicative approach is suitable for the age and psychological characteristics of primary school students, and it serves to increase their speech activity, to consciously acquire grammatical skills, and to develop independent thinking. The thesis scientifically highlights the essence of the communicative approach, its linguistic and pedagogical foundations, as well as its role in the primary education process.*

Keywords: *communicative approach, primary education, mother tongue lessons, speech competence, grammatical skills, language teaching technology, vocabulary, interactive methods, pedagogical technologies, didactic approach, educational effectiveness, speech culture, methodology, assessment criteria.*

Annotatsiya. *В данной статье анализируются теоретико-педагогические основы применения коммуникативного подхода на уроках родного языка в начальных классах.*

Согласно требованиям современного образования, важно формировать у учащихся не только теоретические знания языка, но и умение использовать их в реальных коммуникативных ситуациях. Коммуникативный подход соответствует возрастным и психологическим особенностям учащихся начальных классов и способствует повышению их речевой активности, осознанному усвоению грамматических навыков, а также развитию самостоятельного мышления. В тезисе научно раскрываются сущность коммуникативного подхода, его лингвистические и педагогические основы, а также его роль в процессе начального образования.

Ключевые слова: коммуникативный подход, начальное образование, уроки родного языка, речевая компетенция, грамматические навыки, технология обучения языку, словарный запас, интерактивные методы, педагогические технологии, дидактический подход, эффективность обучения, культура речи, методика, критерии оценивания.

Bugungi globallashuv va axborotlashuv davrida ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan talablar tubdan o'zgarib bormoqda. Zamonaviy jamiyatda shaxsning faqat nazariy bilimlarga ega bo'lishi yetarli emas, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish, muloqotga erkin kirisha olish va mustaqil fikr yurita olish ko'nikmalariga ega bo'lishi muhim hisoblanadi. Ta'lim tizimida boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning keyingi ta'lim faoliyati uchun mustahkam poydevor yaratib berishi bilan alohida ahamiyatga ega. Aynan shu bosqichda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqi, tilga bo'lgan munosabati, grammatik bilim va ko'nikmalari shakllanadi. Kommunikativ yondashuv yordamida o'quvchilarning tilni amalda qo'llash qobiliyati va grammatik ko'nikmalari samarali rivojlanadi. Shu sababli boshlang'ich sinf ona tili darslarini samarali tashkil etish, innovatsion va ilmiy asoslangan pedagogik yondashuvlarni tatbiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

An'anaviy ta'limda grammatik qoidalar ko'proq yodlashga asoslangan bo'lib, o'quvchilarning amaliy nutq faoliyatida ularni qo'llash ko'nikmalari yetarli darajada rivojlanmasligi kuzatiladi. Ushbu muammoni bartaraf etishda kommunikativ yondashuv muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Kommunikativ yondashuv konstruktivizm, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va faoliyatga asoslangan yondashuv nazariyalariga tayangan holda shakllangan. Ushbu nazariyalarga ko'ra, bilim tayyor holda berilmaydi, balki o'quvchining faol ishtiroki orqali shakllanadi. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida bu yondashuv grammatik ko'nikmalarni nutq jarayonida egallashga imkon yaratadi.

Bolaning kognitiv rivojlanish bosqichlari grammatik ko'nikmalarni yosh xususiyatiga moslashtirishni talab qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda kommunikativ yondashuv ularning qiziqishini oshiradi, nutqiy faolligini kuchaytiradi va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Kommunikativ yondashuv o'quvchining faolligini oshirish, dars jarayonida o'zaro muloqotni tashkil etish va hamkorlik muhitini yaratishni nazarda tutadi

Grammatik tushunchalar o'quvchilar tomonidan faqat qoidalar majmui sifatida emas, balki muloqot jarayonida ma'no ifodalash vositasi sifatida qabul qilinadi. Bu esa grammatik bilimlarning mustahkam va uzoq muddatli bo'lishini ta'minlaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari nuqtayi nazaridan nutqiy kompetensiya deganda muayyan til imkoniyatlaridan, jumladan ona tili va xorijiy tillardan amaliy va ijodiy tarzda foydalana olish malakasi tushuniladi. Aslida, nutqiy kompetensiya o'z tuzilishiga ko'ra lingvistik hamda psixologik (ruhiy) tamoyillarga asoslanadi. Lingvistik tamoyilga ko'ra, nutqiy kompetensiya fonetik, leksik, frazeologik, morfemik, morfologik, sintaktik va uslubiy sathlarning o'zaro uzviy bog'liqligidan tashkil topgan yaxlit tizim bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ushbu sathlarga oid bilim va ko'nikmalarni egallashi hamda ularni nutqiy muloqot jarayonida o'rinli qo'llay olish darajasi bilan belgilanadi.

Xo'sh, olimlar tadqiqlarida kommunikativlik qanday talqin etiladi?

M.M.

Rubinshteynning fikriga ko'ra, bolalarning savollari turli motivlarga asoslanadi va ular ikki guruhga ajratiladi: bilishga qaratilgan savollar hamda kommunikatsiya ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan savollar. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ham ko'pincha kommunikativ savollar orqali o'qituvchi va tengdoshlari bilan aloqa o'rnatishga, diqqatni jalb qilishga va o'z fikrini ifodalashga harakat qiladi.

N. Xomskiy tomonidan ilgari surilgan "til kompetensiyasi" tushunchasi insonning ichki mental grammatik tizimi sifatida izohlanadi. Uning fikricha, bola ona tilini o'zlashtirish jarayonida til qoidalarini tabiiy ravishda anglab boradi va bu jarayon uning til kompetensiyasini shakllantiradi. Boshlang'ich sinfda bu jarayon nutqiy amaliyot orqali yanada faollashadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy rivojlanishning asosiy vazifalari lug'at boyligini kengaytirish, grammatik to'g'ri nutq tuzish, bog'langan nutqni rivojlantirish hamda nutq madaniyatini shakllantirishdan iborat. Shu bilan birga, dialogik nutqni rivojlantirish ham muhim bo'lib, o'quvchilar aniq va ifodali gapirish, suhbatdoshni tinglash, fikrni bo'lmaslik hamda mavzudan chetga chiqmaslik kabi ko'nikmalarni egallaydilar.

I.A. Zimnyayaning fikricha, kommunikatsiya ikki tomonlama axborot almashish jarayoni bo'lib, o'zaro tushunishni ta'minlaydi. Boshlang'ich sinfda bu jarayon o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirish orqali amalga oshiriladi.

K.F. Sedov kommunikativ kompetensiyaning lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik turlarini ajratib ko'rsatadi. Boshlang'ich sinfda lingvistik kompetensiya til birliklarini (leksika, fonetika, grammatika) to'g'ri qo'llashni, sotsiolingvistik kompetensiya esa vaziyatga mos nutq shaklini tanlashni, pragmatik kompetensiya esa aniq muloqot vaziyatida maqsadga yo'naltirilgan nutqni shakllantirishni anglatadi.

Kommunikativ kompetensiyani shakllantirish jarayonida turli didaktik o'yinlar, muloqotga asoslangan topshiriqlar, jamoaviy faoliyatlar muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, o'yin faoliyati boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yetakchi faoliyat turi sifatida nutqni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. O'yin jarayonida bolalar o'zaro muloqotga kirishadi, nutqiy me'yorlarni o'zlashtiradi va kommunikativ vaziyatlarda erkin fikr bildirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Rossiyalik psixolog M.I.Lisina kommunikativ faoliyat muvaffaqiyatini uchta komponentga ajratadi: kognitiv (bilish), xulq-atvor va hissiy. Bu komponentlar shaxsiy kommunikativ muammolarni aniqlash, xulq-atqorini boshqarish va hissiyotlarini jilovlay olishni ta'minlaydi. U kognitiv komponent mezonlarini quyidagilarga ajratgan:

“Muloqot vaziyatini yo'naltira olish; ogohlantirishlarni to'g'ri qabul qilish; tengdoshlariga yordam ko'rsatish; tengdoshlari fikrlari va qarashlarini e'tiborga olish; muloqotga qiziqishni namoyon qilish va o'z fikrini ifodlay olish qobiliyatiga ega bo'lish”.

Kommunikativlik – shaxslar orasidagi o'zaro axborot almashinuv, aloqa, munosabat sanalsa, kompetensiya u yoki bu soha bo'yicha bilimdonlikdir⁸. Yuqorida keltirilgan fikrlarni umumlashtirgan holda, “Kommunikativ kompetensiya bir insonning boshqalar bilan samarali va natijaviy muloqot qilish qobiliyatidir” degan fikrga kelish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf ona tili darslarida kommunikativ yondashuvning nazariy asoslarini chuqur o'rganish va amaliyotga tatbiq etish ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv grammatik ko'nikmalarni rivojlantirishda o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirish, bilimlarni ongli va mustahkam o'zlashtirish imkonini beradi. Shu bois kommunikativ yondashuv boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiya sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
2. Абу Наср Фаробий. Фазилат, бахт-саодат ва камолот ҳақида. – Тошкент: Ёзувчи, 2001. – 64 б.
3. Asqarova D.Q. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasi. – Toshkent: Navro'z, 2020. – 139 b.
4. Йўлдошев Ж., Усмонов С. Педагогик технология асослари. – Toshkent: Ўқитувчи, 2004. – 102 б.
5. Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Turon-Iqbol nashriyoti, 2006. – 119 b.

⁸ Bu haqda qarang: Djurayev R.X., Tolipov O'.Q., Safarova R.G'. va boshq. Pedagogik atamalar lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Fan nashriyoti, 2008. – 196 b.